



SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**SURXONDARYO VILOYATIDA
O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL
TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI
(2022/2023- o'quv yili boshiga)**





O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus professional ta'lif tizimi

Professional ta'lif tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lif bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'lifning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lif tizimi hamda tabaqlashtirilgan ta'lif dasturlari joriy etiladigan ta'lif muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lif tizimlarining tuzilishi va ta'lif dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish

va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lif tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'lifning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lif statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat





O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, professional ta'lifi tizimi

O'rta maxsus ta'lif akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lif asosida

ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lif oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqa lashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lif olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lif

Boshlang'ich professional ta'lif



O'rta professional ta'lif



O'rta maxsus professional ta'lif



Boshlang'ich professional ta'lif kasb-hunar mакtablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lif shakli bo'yicha umumta'lif fanlarining

va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lif kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lif shakllari bo'yicha umumiyo'rta, o'rta maxsus ta'lif hamda boshlang'ich professional ta'lif negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lif texnikumlarda umumiyo'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lif negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lif shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Akademik litseylar soni va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, birlik)




Akademik litseylar soni

2022/2023- o'quv yilida 2018/2019- o'quv yillarda akademik litseylar soni 4 tani tashkil etmoqda.

2022/2023- o'quv yili boshiga ularning eng yuqori ko'rsatkichi Termiz shahrida (2 ta) qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarda Jarqo'rg'on va Qiziriq tumanlarida (1 ta) dan kuzatilgan

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 2018/2019- o'quv yili boshiga nisbatan 1,3 ming kishiga, ya'ni 45,2 % ga kamaygan.






**Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)**



2022/2023- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng katta qismi Termiz shahrida (721 kishi), eng kam qismi Qiziriq tumanida (88 kishi) qayd etilgan.

**Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti
(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)**



2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi 62,0 % ni (686 kishi), qizlar ulushi 38,0 % ni (420 kishi) tashkil etdi.




SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi

(o'quv yili boshiga, kishi)



2018-2022- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnda, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 27 kishiga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining eng ko'p qismi Termiz shahrida (92 kishi), eng kami esa Qiziriq tumanida (11 kishi) qayd etilgan.

Akademik litseylarning 2023- yilda bitirishi kutilayotgan bitiruvchilar soni (o'quv yili boshiga, kishi)



SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Surxondaryo viloyatida professional ta'limga

Professional ta'limga egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'limga, o'rta professional ta'limga, o'rta maxsus professional ta'limga darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'limga muassasalari soni

(o'quv yili boshiga, birlig)



■ Kasb-hunar maktablari ■ Kollejlar ■ Texnikumlar

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar hamda kasb-hunar maktablari soni ko'payganligi, kollejlar esa kamayganligini kuzatish mumkin.


Masalan, 2022/2023- o'quv yili boshida Kollejlar soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 2 taga kamaygan, texnikumlar soni esa 3 taga ko'paygan



SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)



2020/2021- o'quv yildan 2022/2023- o'quv yiliga bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 2,3 barobarga, texnikumlarda 2,2 barobarga, kollejlarda esa 1,2 barobarga oshgan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonida qizlarning ulushi (53,5 %) o'g'il bolalarning ulushiga (46,5 %) nisbatan ko'p bo'lgan.

Agarda professional ta'limga har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (75,8 %) ulushi qizlar (24,2 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 93,8 % ni, o'g'il bolalar ulushi 6,2 % ni, texnikumlarda esa qizlar 70,6 % ni, o'g'il bolalar 29,4 % ni tashkil qilgan.




SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarining o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarida so'ngi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida o'qituvchilar soni 1378 nafarni tashkil etmoqda.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarining bitiruvchilari (2022-yil uchun, kishi)



SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda


28

29

2021- yil → 2022- yil

Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda*

(2022/2023- o'quv yili boshiga)



2022/2023- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatida 29 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Denov tumanida (4 ta), eng kami — Bandixon, Muzrabot, Qiziriq hamda Termiz tumanlarida (1 ta) dan qayd etilgan.

*shu jumladan madaniyat va san'at maktablarini qo'shgan holda






Kasb-hunar mакtablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, kishi

Hududlar bo'yicha
2022/2023- o'quv yili boshiga

(o'quv yili boshiga)



2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **11 855** nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Denov tumanida – **2 124** nafar, eng kami Termiz tumanida – **364** nafar.




75,8 %
Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **24,2** foizini qizlar, **75,8** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.






**Kasb-hunar mакtablarida faoliyat yuritayotgan
o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)






Kollejlar soni, birlikda
(o'quv yili boshiga)


Hududlar bo'yicha



O'zbekiston Respublikasi



■ 2021/2022 ■ 2022/2023




2022/2023- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatida **14** ta kollej mavjud bo'lib, shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'pi Termiz shahrida (2 birlik) qayd etilgan.






Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Surxondaryo viloyati



■ 2021/2022 ■ 2022/2023




2022/2023- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatidagi **14** ta kollejda **5766** nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Denov tumanida (**699** nafar o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Bandixon tumanida (**70** nafar o'quvchi) qayd etilgan.





Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Surxondaryo viloyati




2022/2023-o'quv yili boshida kollejlarda **255** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahri va Qumqo'rg'on tumanlariga (39 nafar o'qituvchi) to'g'ri kelmoqda.






**Texnikumlarni hududlar
bo'yicha taqsimlanishi, birlikda
(o'quv yili boshiga)**



O'zbekiston Respublikasi




Surxondaryo viloyatida
2022/2023- o'quv yili boshida
texnikular soni **17** tani tashkil etdi,
2021/2022- o'quv yili boshiga nisbatan
o'zgarish bo'limgan.





Texnikum talabalarining taqsimlanishi, kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Surxondaryo viloyatida




2022/2023- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatidagi texnikumlarda **6747** talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida (**1612** nafar), eng past ko'rsatkich Uzun tumanida (**77** nafar) qayd etilgan.







Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

Hududlar bo'yicha



O'zbekiston Respublikasi



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda **305** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (29 nafar) nisbatan kamaygan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Termiz shahrida – **66** nafar, eng kami – Uzun tumanida – **6** nafar qayd etildi.





Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzlusiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiyligida olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lism – ta'lism oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzlusiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlar — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:

**Ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi**



**Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi**



**Manzil: Termiz shahar
At-Termiziy ko'chasi,
7-uy**



Tel. +99876 225-65-73

